

## **O‘ZBEKISTONNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA O‘TISH ISTIQBOLLARI**

*Sharipov Sanjar Saidovich*

*Xalqaro Osiyo universiteti 70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar  
bo'yicha) yo'nalishi magistranti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tish istiqbollari, raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning tamoyillari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotni raqamlashtirishning muhim ahamiyati va raqamli iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan.*

***Аннотация.** В данной статье рассмотрены перспективы перехода Узбекистана к цифровой экономике, разработаны принципы формирования цифровой экономики. Кроме того, было изучено важное значение цифровизации экономики в социально-экономическом развитии стран и особенности развития цифровой экономики.*

***Annotation.** in this article, the prospects for the transition of Uzbekistan to the digital economy, the principles of the formation of the digital economy are developed. In addition, the important importance of digitization of the economy and the features of the development of the digital economy are studied in the socio-economic development of countries.*

***Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar, yangi iqtisodiyot, raqamlashtirish, onlayn bozorlar, senzura, inqiroz, ijtimoiy iqtisodiyot.*

***Ключевые слова:** цифровые технологии, новая экономика, оцифровка, онлайн-рынки, цензура, кризис, социальная экономика.*

*Key words: digital technology, new economy, digitization, online markets, censorship, crisis, social economy.*

**Kirish.** Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar energetika, qurilish, bank ishi, transport logistikasi, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, ommaviy axborot vositalari va xavfsizlik sohasidagi iqtisodiy ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga 2020 - yil 25 - yanvarda yo'llagan Murojaatnomasida 2020 - yil - "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinganligi va ushbu murojaatnomani nafaqat o'tgan yilga qo'llanma va yo'llanma sifatida, balki yaqin o'rta muddat uchun O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi dastur, fundamental ahamiyatga ega bo'lgan hujjat sifatida baholash mumkin. 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 25-maqсад deb "Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish" belgilangan. Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy ob'yektlarni hamda magistral avtomobil yo'llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish. Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operasion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026 yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSH dollariga yetkazish" 25-maqсад qilib belgilab olingan. Ushbu maqsad iqtisodiy sohalarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yanada yuqori natijaga erishishni ko'rsatib bermoqda.

Dunyo hamjamiyatida ro'y berayotgan bunday jadal o'zgarishlar va raqobatning keskinlashuvi jarayonida innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishini taqazo etadi. Texnologik innovatsiyalarning avvalgi to'lqinlarida bo'lgani kabi, raqamli texnologiyalar ham ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zgartirish uchun sharoit yaratadi. Internet ish o'rinlarini

rivojlantirishi va transport tizimlarini xavfsiz, shaharlarni yashashga yaroqliroq qilishi mumkin. Keng ko'lamli tarmoqlar va onlayn bozorlar, ilovalar, aloqa, xarid qilish, sayohat va ish, shuningdek, butunlay yangi biznes modellari va onlayn tizim yaratish uchun ishlatiladi. Raqamlashtirish raqamli platformalarda kontent ishlab chiqarish va "Peer to Pyeyer" (sotuvchi va haridor) tarmoqlarida ishtirok etish orqali ko'plab iste'molchilarga keng imkoiyatlar taklif etadi. Raqamli iqtisodiyot samaradorlikni oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.

Iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorlikni oshiradi va global qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkonini beradi. Raqamlashtirish tranzit xarajatlarini kamaytirish, axborot assimetriyasini bartaraf etish, keng miqyosli va tarmoq natijalari iqtisodidan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu omillar tufayli raqamli iqtisodiyot bozorlar va xizmatlar, ta'lim, sog'liqni saqlash, kredit, resurslarni va investisiyalarni ko'paytirish uchun kengroq imkoniyatlarga ega bo'ldi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning o'sishi muammolarsiz bo'lmaydi. Raqamlashtirish mamlakat iqtisodiyotiga bir qancha imkoniyatlar olib kelishi bilan uning salbiy jihatlari ham mavjud. Ya'ni raqamlashtirish yangi ish o'rinlarini yaratadi, eskilarini qisqartiradi va mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu o'sib borayotgan daromad tengsizligining asosiy sababi bo'lgan o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat bozoridagi bunday o'zgarishlar xavotirli, chunki raqamlashtirish ishsizlikning oshishiga olib kelishi va daromad taqsimotidagi mavjud farqlarni ko'paytirishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, ushbu tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyotni shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Iqtisodiyot va jamiyatning "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa digitalization ya'ni raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyasiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni

anglatadi. Raqamli iqtisodiyot tartibga solishning nazariy tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov "Raqamli iqtisod – haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit" – deb ta'rif bergan. Tomsk davlat universitetining professori D.Kungurovning fikricha "raqamli iqtisod" atamasiga ikkita yondashish mavjud deb hisoblaydi.

Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiyotning va elektron tovar va xizmatlar eksklyuziv domen tavsiflovchi raqamli iqtisodiyot: birinchi yondashuv "klassik" deb nomlanib, klassik misollar – teletibbiyot, masofaviy ta'lim, dori-darmonlarni sotish (filmlar, televizorlar, kitoblar va boshqalar). Ikkinchi yondashuv: "raqamli iqtisod" ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarishdir. M.L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot – iqtisodiy internet faoliyati shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta'riflagan.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. 1995 - yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "raqamli iqtisodiyot" terminini amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo'llamoqda. 2016 - yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma'ruza e'lon qildi ("Raqamli dividendlar"). Bundan tashqari jahon bankining "Raqamli dividendlar" nomli tadqiqoti xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyot tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi V.Ivanov «Raqamli iqtisod - haqiqatimizni to'ldiradigan virtual muhit» - deb ta'rif bergan. R. Meshyeryakov Raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir va bundan tashqari, faqat elektron mahsulotlar va xizmatlar sohasini tavsiflash yanada to'g'ri bo'ladi. Raqamli

iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalardan foydalanadigan iqtisodiy ishlab chiqarish deb ta'rif bergan. M.L. Kalujskiy raqamli iqtisodiyot - iqtisodiy internet faoliyati, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va uni amalga oshirish aloqa muhitidir deb ta'riflagan. Manbalarda keltirilishicha "Raqamli iqtisodiyot" iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi.

Raqamli iqtisod - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u yerda ma'lum bir kiber-jismoniy (kiber-fizik) tizim paydo bo'ladi.

Manbalarda keltirilishicha "Raqamli iqtisodiyot" iqtisodiyotning bunday turi ma'lum darajada amalda ishlaydigan turdagi model hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayot va qulaylikni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan ishlab chiqarish tizimi bo'lib, u yerda ma'lum bir kiber-jismoniy (kiberfizicheskaya) tizim paydo bo'ladi. Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot bu ishlab chiqarish kompleksi insonlar uchun qulayliklarni ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlarni yaratadigan virtual muhit bo'lib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda iqtisodiy ishlab chiqarish tizimidir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki raqamli iqtisodiyotda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda ilmiy sig'imkorlik yuqori bo'lgan tarmoqlar ravnaq topadi. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YAIM hajmi ham, YAIMning aholi son boshiga ulushi ham yuqoridir. Shu jihatdan, davlatimiz rahbarining bu masalaga katta e'tibor qaratishi bir maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa, birinchidan, aholining yashash darajasini yuksaltirish, ikkinchidan, aholining real daromadlarini oshirish va xalqimizni rozi qilishdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 174-bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoniga 1-ilova. 3. "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son Farmoni. - <https://www.lex.uz/docs/3564970>.

3. Muminov N.G., Zakhirova G.M. The role of public procurement in the digitalization of the economy and adoption of e-commerce. St. Petersburg State Polytechnical University Journal. Economics Vol. 13, No. 2, 2020. P.30-39. DOI: 10.18721/JE.13203.

4. Abdullayev, M., Hamidova, L., & G'oyibberdiyev, A. (2018). Ishsizlikning namoyon bo'lishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. In Вопросы управления и экономики: современное состояние актуальных проблем (pp. 101-104).

5. Г.Ф.Исмоилова. М.М.Парпиева. Давлат статистика кўмитаси ҳузуридаги Кадрлар малакасини ошириш ва статистик тадқиқотлар институтининг "Ўзбекистон статистика ахборотномаси" илмий электрон журнали. 2022 йил, 2-сон "Ўзбекистонда рақамли иқтисодиёт ривожланишида рақамли технологияларнинг аҳамияти".

6. Камбаров Ж.Х., Махмудова Н.Ж. Задачи управления рисками на предприятии // Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2016. № 5. С. 88-89.